



Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi  
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti  
magistratura talabasi  
+998999150248,

[shohistayazdanova150298@gmail.com](mailto:shohistayazdanova150298@gmail.com)

Eshonqulova Sabrina Do'stmurod qizi  
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti  
magistratura talabasi  
+998901309210,

[sabrinaeshankulova1992@gmail.com](mailto:sabrinaeshankulova1992@gmail.com)

## O'ZBEKISTONDA ERKIN TURISTIK ZONALARNI TASHKIL ETISHNING DESTINATSIYALAR BILAN BOG'LIQLIGI.

**Annatsiya:** Berilgan maqola erkin turistik zonalarni tashkil etishning vazifalari hamda faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan bir qatorda erkin turistik zona va destinatsiya tushunchalari o'rtasidagi bog'liqliklar sanab o'tilgan. Yangi destinatsiyalarni tashkil etishda erkin turistik zonalardan foydalanish samarali vosita bo'la oladi.

**Kalit so'zlar:** erkin turistik zona, turistik zona, destinatsiya, kichik turistik zona, turistik obyekt, soliq imtiyoz

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о задачах и мероприятиях по организации свободных туристических зон. Кроме того, перечислены связи между понятиями свободной туристической зоны и дестинации. Использование свободных туристических зон может стать эффективным инструментом для создания новых направлений.

**Ключевые слова:** свободная туристическая зона, туристическая зона, дестинация, малая туристская зона, туристский объект, налоговая льгота.

**Annotation:** This article provides information about the tasks and activities of the organization of free tourist zones. In addition, the connections between the concepts of free tourist zone and destination are listed. The use of free tourist zones can be an effective tool for creating new destinations. Key words: free tourist zone, tourist zone, destination, small tourist zone, tourist object, tax concession

Hozirgi globallashuv jarayonida Maxsus iqtisodiy zonalarning(MIZ) iqtisodiyotga jadallik bilan ta'sir ko'rsatayotganini Jahon Bakning ma'lumotlarida o'z aksini topgan. Unga ko'ra bugungi kunda 135dan ortiq mamlakatda 3000 dan ortiq erkin iqtisodiy zonalar mavjud, hisob kitoblarga ko'ra 68 mlndan ortiq ish o'rinlari yaratilgan va 500mlrd AQSh dollari miqdorida daromad keltirgan.<sup>87</sup> Erkin iqtisodiy hududlarga berilgan imkoniyatlar o'z samarasini bermoqda deyish mumkin.

<sup>87</sup> World Bank Document, Special economic zones April 2008 year, performance, lessons learned, and implications for zone development/ [electron resours] - <https://documents1.worldbank.org/curated/en/343901468330977533/pdf/458690WP0Box331s0April200801PUBLIC1.pdf>



Rossiyalik olimlardan T.G. Trabskaya turistik zonani quyidagicha ta'riflagan "turistik zona" – bu barchaga ma'lum bo'lgan turistik obyektни turistlar uchun diqqatga sazovor joyga aylantirish maqsadida turistlarning barcha ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan xizmat ko'rsatuvchi korxonа va tashkilotlarni o'zida jamlagan maxsus chegaralar bilan ajratilgan hudud.<sup>88</sup> Trabskaya ETZning tashkil etilishining asosiy maqsadini ochib bergan, ya'ni har qanday turdagi turistik zonani tashkil etishdan asosiy maqsad bu yerni turistlar uchun barcha sharoitni o'zida mujassamlashtirgan destinatsiyaga aylantirishdan iborat.

Erkin turistik zonalarning tasniflanishi ham xuddi erkin iqtisodiy zonalarning tasniflanishi singari, hududiga, joylashuviga, maqsadiga, transport tizimlariga ko'ra turli turlarga bo'linadi. Erkin turistik zonalarning tasniflanishi ularning har bitta alohida turini samarali rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. ETZlarni tasniflash orqali har bitta turizm turiga alohida urg'u berib profesional darajada xizmatlar ko'rsatadigan destinatsiya vujudga keltiriladi.

Larriy Develning fikriga ko'ra destinatsiyalar turizmда davlatlar va turizm sektorlari orasidagi raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Destinatsiyalarning vujudga kelish modeli to'g'ri ishlab chiqilsa, raqobatbardosh tovar va xizmatlar hamda muvaffaqiyatga erishish kaliti bo'lib xizmat qilishi mumkin.<sup>89</sup>

O'zbekiston Respublikasi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 35-maqsadining 3-bandida turistik zonalarni tashkil etish masalasi qo'yilgan. Bunda Jizzax viloyatining turistik obyektlaridan oqilona foydalanish maqsadida Zomin, Forish, Baxmal va "Aydar-Arnasoy" ko'llarida dam olish maskanlarini barpo etish, bunda Jizzax viloyatining ekologik salohiyatidan foydalanib aholi va sayyohlar uchun kompleks xizmat ko'rsatadigan turistik destinatsiyaga aylantirish uchun 300 million AQSH dollari miqdorda investitsiyalarni jalb etish hamda 25 ming ish o'rinlarini yaratish belgilangan. Xuddi shu maqsadning 4-bandi Samarqandni "Turizm darvozasi"ga aylantirish shu bilan bir qatorda 2022-yilda "Abadiy shahar" tarixiy me'moriy kompleksini o'z ichiga olgan turizm markaziga aylantirishga urg'u berilgan. Qayd etilishicha, erkin turistik zonaning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- erkin turistik zonada zamonaviy turizm infratuzilmasi ob'ektlari (mehmonxona majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va turistik ahamiyatdagi boshqa ob'yektlar)ni, turistlarga xizmat ko'rsatish uchun zarur sharoitlarni ta'minlagan holda maxsus funktsional va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarni yaratish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning investitsiyalarini jalb qilish;

- hududning ekomuhiti imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos turistik yo'nalishlarni tashkil etish;

- transport vositalarining arzonligini ta'minlash, hududda transport harakatining yangi (avtobus, mikroavtobus, funikulyor va boshqalar), shu jumladan, muqobil energiya

<sup>88</sup> Кудрявцев Н.С., Трабская Ю.Г., Хорева Л.В. Туристские зоны как новый элемент развития и продвижения дестинации на национальный и мировой рынки услуг[электронная рэсурсъ - file:///C:/Users/User5-4/Downloads/turistskie-zony-kak-novyy-element-razvitiya-i-prodvizheniya-destinatsii-na-natsionalnyy-i-mirovoy-rynki-uslug.pdf

<sup>89</sup> L.Dewel Destination Competitiveness: Determinants and Indicators[electron resource] - <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/13683500308667962>

manbalarida harakatlanuvchi turlarini joriy etish, yo'lovchi transporti yo'nalishlarini kengaytirish, uning to'xtovsiz harakatini tashkil etish, tegishli transport infratuzilmasini rivojlantirish;

- turistlar xavfsizligining qo'shimcha sharoitlarini, shu jumladan turistik infratuzilma ob'yektlarini videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, ogohlantirish tizimlarini tashkil etish, hududga keluvchi turistlar haqida yagona ma'lumotlar bazasini, favqulodda holatlarda tez yordam berish tizimini joriy etish yo'li bilan yaratish

- erkin turistik zona hududida loyihalarni amalga oshirayotgan va faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlari hamda investorlar (shu jumladan, xorijiy investorlar) uchun belgilangan alohida bojxona va soliq rejimlarini ta'minlash;

- energiyaning muqobil va qayta tiklanuvchi manbalarini qo'llagan holda yangi zamonaviy energiya tejovchi tizimlar va texnologiyalarni joriy qilish asosida o'ziga xos ekologik tizimni yaratish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish;

- hududda noyob tabiiy ob'yektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning genetik fondini saqlash, shuningdek, faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta'sirini oldini olish va minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirzoyoyevning "Chorvoq erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risida"gi farmonida ushbu hududda kichik turistik zonalarini tashkil etishda eng ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish belgilangan edi. Ushbu farmonning amaliy ifodasi "Amirsoy" kurort zonasida o'z ifodasini topdi. 2019-yilning IV choragida foydalanishga topshirilgan resort, Tyan-shan tog'larining g'arbiy Chotqol tizmasida Bo'stonliq tumanining 900 gektar maydonida joylashgan.<sup>90</sup> Sun'iy qor ishlab chiqarish tizimining mavjudligi chang'i mavsumining uzayishiga ya'ni mavsumiylik yo'qolishiga yordam berdi. O'zbekistonga asosan yoshi katta turistlar kelishini hisobga olsak, aktiv turizm turlarini taklif etadigan "Amirsoy" mamlakatga tashrif buyuruvchi yoshlar sonining ortishiga ham yordam beradi. Bu O'zbekistonning yangi turistik destinatsiyasiga ayandi deyish mumkin, chunki ushbu zonada barcha xizmat turlari va zaruriy sharoitlar Italiya, Germaniya, Avstriya, Argentina, Ispaniya a Daniya kabi davlatlarning yetakchi loyihachi kompaniyalari tomonidan zamonaviy jahon standartlari asosida qurib bitkazildi.<sup>91</sup> Sig'imi 580 o'ringa mo'jallangan turli xildagi joylashtirish vositalari mavjud bo'lib ekonom va lyuks klasdagi nomerlarga ega. Uzunligi 2193 metr, o'tkazuvchanlik qobiliyati esa soatiga 2400 nafar kishini tashkil etadiga dor yo'li Avstriyaning "Doppelmayr Seilbahnen GmbH" kompaniyasi tomonidan tuzildi. Turli murakkablikdagi 15 ta chang'i uchish yo'llari qurilib shularning 4 tasi kurortning eng baland nuqtasidan boshlanadi bunda eng uzun trassa 3550 metr. Chang'i yo'llarining turli murakkabliklarga ega ekanligi bu yerda chang'i ishqibozlaridan tortib professional sportchilargacha barcha shug'illanishi mumkin. Bundan tashqari oilaviy tashrif buyuruvchilar uchun tyubing, piyoda sayr qilish, chanada va kvadratsiklda uchish imkoni, ko'ngilochar zonalar, bolalar uchun o'yin maydonchalari ham mavjud.

<sup>90</sup> Amirsoy Mountain Resort [electron resurs] - <https://www.amirsoy.com/uz/>

<sup>91</sup> "Amirsoy" tog'-chang'I kurorti ishga tushdi [electron resurs] - <https://qalampir.uz/uz/news/amirsoy-tog-changi-kurorti-ishga-tushdi-foto-reportaj-12086>

EIZlarning o'zi nima, uning ahamiyati, muhimligi va samaralari, afzalliklari haqida yetarlicha tushuncha, tasavvur va bilimga ega bo'lish zaruriyatini kuchaytirib bormoqda. Shu sababdan ushbu masalaga jiddiy yondashish uni alohida fan sifatida o'rganish darajasiga ham olib chiqdi. So'nggi 30 yillikda xorijiy olimlarning diqqat markazida bo'lgan dolzarb mavzu bu yangi turistik destinatsiyalardir. Turistik destinatsiya o'z-o'zidan erkin turistik zonaning mantiqiy davomiga aylanadi. Asli olganda erkin turistik zonalar, kichik turistik zonlar, maxsus turistik zonalarining tashkil etishdan asosiy maqsad ham aynan ushbu hududlarni turistik destinatsiyaga aylantirishdan iborat.



### 2.1.2-rasm. Turistik obyektlardan destinatsiyaning vujudga kelishi.<sup>92</sup>

Yuqoridagi grafikda ko'rishimiz mumkinki, ETZlar faoliyati destinatsiyalarga chambarchas bog'liq bo'lib, har ikki omil bir-birini to'ldirib turadi. Yangi destinatsiyani vujudga keltiruvchi eng asosiy omillardan biri bu turistik obyektning mavjudligidir. Agarda ushbu obyekt istiqboli bor deb topilsa, u va u turgan hudud rivojlantirish maqsadida ETZ tashkil etiladi, ETZning bosh vazifasini qonuniy huquqiy- normativ hujjatlarda ko'rishingiz mumkin. Direksiya ETZni nazorat qilib, u yerdagi infratuzilma holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Umuman olganda ETZ yangi destinatsiya tashkil etishning asosiy vositasi sanaladi. Destinatsiyalar ETZlarsiz ham vujudga kelishi mumkin, ammo erkin turistik zona madaniy meros obyektlarini ertaroq, jadalroq, kengroq destinatsiya aylantirishga yordam beradi.

Turistik destinatsiya bu – belgilangan alohida hududda (shahar, qishloq, tuman, mahalla yoki viloyat) mavjud resurslarga ko'plab turistlarni jalb qiluvchi manzilgohdir. Destinatsiyalar turistlarning e'tiborini jalb qilish uchun avvalambor jozibador turmarshrutga ega bo'lishi lozim. Bushunchaki turistik obyekt bo'libgina qolmasdan atrofidagi xizmat ko'rsatish va savdo faoliyatlarini ham qo'llab quvvatlovchi yaxlit bir turistik infratuzilma deb atash mumkin. Destinatsiya turistlarning talablarini qondirish uchun barcha xizmat turlarini ko'rsatadigan, savdo shahobchalariga, ishlab chiqarish korxonolariga ega bo'lgan kompleks xizmat ko'rsatuvchi markaz hisoblanadi. O'zbekistonda tashki etilayotgan ETZlar birin-ketin destinatsiyaga aylanib bormoqda. Misol uchun "Amirsoy" va "Boqiy shahar" loyihalari bugungi kunda yangi turistik destinatsiya sifatida ko'plab turistlarni o'z bag'riga chorlamogda.

ETZda loyihani joylashtirish masalasini hal etish paytida, yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, quyidagilar ahamiyatga ega:

- investitsiyalarni muassislarning o'z mablag'lari va ular tomonidan O'zbekistonning davlat kafolati taqdim etilmasdan jalb qilingan kreditlar hisobidan amalga oshirish;
- investorning moliyaviy layoqatliligi, texnik va texnologik bazaning mavjudligi;
- investitsiya loyihasi amalga oshirilishining maqsadga muvofiqligi (investitsiya loyihasini qulay joylashtirish, tashkil etiladigan ish o'rinlari soni, hudud va umuman,

<sup>92</sup> Mavjud manbalar asosida dissertant tomonidan tuzildi.



sohadagi infratuzilma o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatish, ishlab turgan quvvatlardan foydalanish, zarur infratuzilmaning mavjudligi)

- investitsiya loyihasida xalqaro standartlarga mos bo'lgan menejment tizimining mavjudligi;

- asbob-uskunalar va texnologik liniyalar ro'yxati ko'rsatilgan holda, energiya tejaydigan zamonaviy tizimlar va texnologiyalar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nazarda tutilgan, jahondagi yetakchi mehmonxona tarmoqlari va umumiy ovqatlanish tarmoqlari brendlarining mezonlariga mos bo'lgan, shuningdek xodim sifatida yurtdoshlarimizni jalb etishni ko'zda tutadigan loyihalarga ustunlik beriladi.

ETZ ishtirokchilari bo'lgan tadbirkorlik sub'yektlari erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun nazarda tutilgan barcha imtiyoz va preferensiyalardan foydalanadilar.

Erkin turistik zonalarni destinatsiyaga aylanishi asosan chet el kapitali evaziga, investitsiyalar kiritish orqali tashkil etiladi bunda davlatda qulay investitsion muhitning yaratilishi, alohida bojxona va soliq imtiyozlari xorijlik investorlar uchun jojibador sanaladi.

